

UDK: 311.213

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSION JARAYONLARNI STATISTIK TAHLIL ETISHNING XORIJ TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

*(2023-yil 21-avgust va 1-sentabr kunlari Avstriyaning Vena shahrida
bo‘lib o‘tgan o‘quv kursi yakunlari)*

Umarov Muxtor Turaevich,

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligi, Narxlar statistikasi boshqarmasi boshlig‘i
e-mail: m.umarov@stat.uz*

Djamaldinov Javoxirbek Raxmatovich,

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligi, Narxlar statistikasi boshqarmasi boshlig‘i
o‘rinbosari – bo‘lim boshlig‘i
e-mail: j.jamoldinov@stat.uz*

Norkulov Shavkat Shakarboyevich,

*Toshkent shahar statistika boshqarmasi
boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari
e-mail: norkulov.stat@gmail.com*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada iste‘mol narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar va ularning mamlakatimiz milliy statistika tizimiga tadbiiq etilganligi holati tahlil qilingan. Shu bilan birga, inflyatsiyaning kelib chiqish sabablari va iste‘mol narxlari indeksini hisoblashda narx-navo o‘zgarishi omillarini tahlil qilish usullari yoritilgan. Iste‘mol narxlari indeksini shakllantirishda dolzarblik, shaffoflikni ta‘minlash va foydalanuvchilarga ma‘lumotlarni tarqatish bo‘yicha xalqaro tavsiyalar, shuningdek, ma‘lumotlarni tarqatishning avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanish yo‘llari o‘rganilgan.

Shuningdek maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish iste‘mol narxlari indeksi ko‘rsatkichini shakllantirishda Web-skreyeping, Data skanner va katta hajmdagi ma‘lumotlardan (Big Data) foydalanishga asoslangan yangi tamoyilga o‘tish imkonini berishi haqida so‘z yuritiladi. Shubhasiz, bu axborot va hisoblash infratuzilmasini modernizatsiya qilish va metodologik bazani

takomillashtirish nuqta'i nazaridan kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vaziflardan biri ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: narx, ro'yxatga olish narxi, salmoq vazn, inflyatsiya, iste'mol narxlari indeksi, ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'rtacha narx, tanlanma kuzatuvlar, tovar va xizmatlar to'plami, press-revizlar, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data), Web-skreyeping, Data skanner.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется зарубежный опыт расчета индекса потребительских цен и его применение в национальной статистической системе нашей страны. При этом, приведены методы анализа возникновения инфляции и факторов изменения цен при расчете индекса потребительских цен. Освещены международные рекомендации по обеспечению актуальности, прозрачности при формировании индекса потребительских цен и распространению информации для пользователей, а также способы использования автоматизированной информационной системы для распространения информации.

Также в статье упоминается, что использование современных цифровых технологий позволяет перейти на новый принцип, основанный на использовании технологий Web-skreyeping, Scan data и больших данных (Big Data) при формировании показателя индекса потребительских цен. Отмечено что, безусловно, это одна из приоритетных задач, которая должна быть реализована в будущем с точки зрения модернизации информационно-вычислительной инфраструктуры, совершенствования методологической базы.

Ключевые слова: цена, регистрационная цена, вес, инфляция, индекс потребительских цен, индекс цен производителей, информационно-коммуникационные технологии, средние цены, выборочное обследование, совокупность товаров и услуг, пресс-релиз, большие данные (Big Data), Web-skreyeping, Scan data.

ABSTRACT

This article analyzes advanced foreign experience in calculating the consumer price index and its application in the national statistical system of our country. At the same time, methods for analyzing the occurrence of inflation are given and factors of price changes when calculating the consumer price index. International recommendations for ensuring relevance, transparency in the formation of the consumer price index and dissemination of information to users, as well as ways to use an automated information system for disseminating information are covered.

The article also mentions that the use of modern digital technologies allows us to switch to a new principle based on the use of Web-skreyeping and Scan data technologies and Big Data when forming the consumer price index indicator. It was noted that, of course, this is one of the priority tasks that should be

implemented in the future from the point of view of modernizing the information and computing infrastructure, improving the methodological base.

Key words: price, registration price, inflation, consumer price index, weight, producer price index information and communication technologies, average prices, sample survey, Group of goods and services, press release, Big Data, Web scraping, Scan data.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar davrida dolzarb va ishonchli statistik ma‘lumotlarni tayyorlash har qachongidan ham ko‘proq talab qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlari, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar milliy statistika tizimini takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Statistikaning rivojlantirish bo‘yicha Milliy strategiyaning tasdiqlanishi kelgusida rivojlanishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash imkonini berdi va O‘zbekistonda milliy statistikaning modernizatsiya qilish jarayoni orqaga qaytmasligining barqaror kafolati bo‘ldi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda inflyatsiyaning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblangan iste‘mol narxlarini indeksini shakllantirishda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, eng yangi tasniflagichlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutuvchi qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

2023-yilning avgust-sentabr oylarida Avstriyaning Vena shahrida Birlashgan Vena instituti tomonidan tashkil etilgan o‘quv kursida O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi mas‘ul xodimlarining ishtirok etishi bu borada amalga oshirilayotgan ishlarga yaqqol misol bo‘la oladi.

Birlashgan Vena Instituti (BVI) Markaziy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo davlatlarining davlat boshqaruvi idoralari vakillarini o‘qitish, malakasini oshirish bo‘yicha mintaqaviy o‘quv markazi bo‘lib, 1992 yilda Avstriya davlat tashkilotlari (Federal Moliya vazirligi va Avstriya Markaziy banki), Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi va boshqa bir qator xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan.

Institut ilgari markazlashgan, rejali iqtisodiyotga ega bo‘lgan mamlakatlarning davlat boshqaruvi idoralari mutaxassislarini o‘qitish va ushbu mamlakatlarga bozor iqtisodiyotiga o‘tishlarida yordam berishni maqsad qilgan.

Hamkorlar va ishtirokchi mamlakatlar bilan kelishilgan holda ishlab chiqilgan BVI o‘quv dasturi quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

keng ko‘lamli operatsion masalalar va muammolarni har tomonlama o‘rganish orqali takomillashtirilgan iqtisodiy siyosatni ilgari surishga ko‘maklashish;

ishtirokchi mamlakatlar duch keladigan umumiy muammolarni va ularning tajribasini hisobga olgan holda, muayyan muammolarni hal qilish uchun moslashtirilgan o‘qitishni tashkil etish;

“O‘zbekiston statistika axborotnomasi”

mintaqadagi turli davlatlarning davlat organlari vakillari o'rtasida aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga ko'maklashish;

o'tish davridagi iqtisodiyoti bo'lgan mamlakatlar tinglovchilariga rivojlangan bozor iqtisodiyoti qanday ishlashini to'g'ridan-to'g'ri tushunish imkoniyatini berish (Avstriya misolida).

O'quv kurslari makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va makroiqtisodiy boshqaruv, pul-kredit siyosati va valyuta kursi tizimlari, moliya sektorining barqarorligi, qarz barqarorligi va boshqaruvi, soliq siyosati va soliq ma'muriyati, harajatlarni boshqarish, fiskal institutlar va fiskal boshqaruv, qonunchilik bazalari, makroiqtisodiy va moliyaviy statistika, shuningdek, ko'plab maxsus mavzular bo'yicha tashkil etiladi. BVI tashkil etilgan davrdan hozirga qadar unda 40 mingdan ortiq tinglovchilar tahsil olishgan.

Yuqorida xabar berilganidek, 2023-yilning 21-avgust – 1-sentabr kunlari BVI tomonidan tashkil etilgan “Iste'mol narxlari indeksi (chuqurlashtirilgan)” o'quv kursida Agentlikning Narxlar statistikasi boshqarmasi boshlig'i rahbarligidagi 5 kishidan iborat delegatsiya ishtirok etib qaytdi.

Mazkur o'quv kursida mamlakatimiz vakillaridan tashqari Avstriya, Armaniston, Albaniya, Bosniya va Gersogovina, Gruziya, Moldova, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya, Tojikiston, Ozarbayjon va Ukraina davlatlarining statistika idoralari vakillari ham ishtirok etishdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kurs o'z ichiga indeks nazariyalari va konseptual qarashlardan tortib, kuzatuvlar, turli xil ma'lumotlar manbaalari bilan ishlash hamda hisob-kitoblar jarayonlarida yuzaga keladigan masalalarni yechishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlarni jamlagan holda o'tkazildi.

O'quv kursiga dunyoning ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlariga iste'mol narxlari indeksi hisob-kitoblari amaliyotini joriy qilish, takomillashtirish va yangilash bo'yicha amaliy ko'mak bergan xalqaro ekspert – Xalqaro Valyuta Jamg'armasining yetakchi mutaxassisi Brayan Graf janoblari hamda zamonaviy axborot-texnologiyalari yordamida muqobil axborot manbaalaridan foydalanish bo'yicha ilg'or tajribaga ega Norvegiya Statistika idorasining yetakchi mutaxassisi Randi Yohansson xonimning ma'ruzachi sifatida taklif etilganliklari bugungi kunda iste'mol narxlari indeksi ya'ni inflyatsiya masalasi dunyo mamlakatlarining iqtisodiy kun tartibida asosiy o'rin egallaganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, mamlakatdagi joriy iqtisodiy holatni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar orasida narxlar statistikasi ma'lumotlari, eng avvalo, iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichi alohida ahamiyatga ega. Mazkur ko'rsatkichdan ko'plab maqsadlarda foydalanilib, iste'mol bozoridagi inflyatsiya darajasini aniqlash ular orasida eng keng tarqalganidir.

Inflyatsiya darajasi bir qancha omillar ta'sirida shakllanadi. Shu nuqta'i nazardan, kurs davomida ma'ruzachilar tomonidan o'tilgan xar bir mavzular davlatlar amaliyotida kuzatilayotgan aniq holatlar, ularning yechimlarini misol keltirgan holda olib borildi. Jumladan, yuqori inflyatsiya ko'rsatkichlari kuzatilayotgan Turkiya misolida narxlarida yuqori volatillik kuzatilayotgan tovar

“O'zbekiston statistika axborotnomasi”

va xizmatlar bo'yicha narxlarni qayd etish davomida shartli hisob-kitoblar uslubidan foydalanish amaliyoti ko'rsatib berildi.

Shuningdek, bugungi kunda dolzarb hisoblangan va statistika sohasida xalqaro maydonlarda ko'plab muhokamalar olib borilayotgan "yangi axborot manbaalari" mavzusi ham kurs nazaridan chetda qolmadi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining tobora kengayib borishi, iste'mol narxlari indeksini shakllantirish jarayonlariga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi barcha davlatlar statistika idoralari uchun katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu, BIG DATA hamda skaner axborotlar va web-scraping texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

BIG DATA yoki katta hajmdagi ma'lumotlar – katta hajmdagi tizimlashtirilgan yoki tizimlashtirilmagan ma'lumotlar massividir. Ular statistika, tahlil, prognoz qilish va qaror qabul qilishda foydalanish uchun maxsus avtomatlashtirilgan instrumentlar yordamida qayta ishlanadi.

Web scraping – bu veb-ma'lumotlarni veb-resurs sahifalaridan ajratish yordamida olish texnologiyasidir.

Narxlar to'g'risidagi skaner axborotlar – bu maxsus texnologiyalarni qo'llagan holda nazorat-kassa apparatlaridan olingan ma'lumotlardir.

Ma'lumotlarni to'plash jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilishning ustunligi – vaqt va inson resurslarini tejash, "inson omili" ta'sirini minimallashtirish, savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlari tanlanmasining samaradorligini oshirish hisoblanib, mazkur usullarning joriy etilishi shakllantirilayotgan ma'lumotlarning sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kursda ishtirok etgan mamlakatlar vakillari amaliyotda qo'llayotgan axborot manbaalari to'g'risida ma'lumot berdilar. Xususan, Norvegiya, Turkiya va Qozog'iston statistika idoralari vakillari istem'ol narxlari indeksi hisob-kitoblari uchun narxlar to'g'risidagi zarur axborotlarni "skaner axborotlar" (scan data) texnologiyasi yordamida to'plash bo'yicha amaliy tajribalari bilan bo'lishdilar.

Jumladan, Norvegiyada iste'mol narxlari indeksi hisob-kitoblari bir nechta axborot manbaalaridan olingan narx to'g'risidagi ma'lumotlarni umumiyashtirish asosida shakllantirish amaliyoti muvaffaqiyatli joriy etilgan. Boshqa ko'rsatkichlar, soatlik ish haqlarida santexnika, duradgorlik va boshqa xizmatlar bo'yicha narxlarni kuzatishda ish haqi statistikasidan foydalanadi.

Shu bilan birga, tranzaksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar Norvegiya statistika idorasi tomonidan iste'mol narxlari indeksi hisob-kitoblarida eng ko'p foydalaniladigan axborot manbaasi hisoblanadi.

O'z navbatida, O'zbekiston vakillari Statistika agentligi tomonidan bugungi kunda, narx to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash bo'yicha amaliyotda qo'llanilayotgan "web scraping" texnologiyasi bo'yicha ma'lumot berildi. Hozirda, Statistika agentligi tomonidan bir qator yirik savdo tarmoqlari saytlaridan web scraping texnologiyasi orqali ma'lumotlarni olish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu ko'plab tovarlar narxi to'g'risidagi dolzarb ma'lumotlarni real vaqt rejimida olish

va ushbu ma'lumotlarni iste'mol narxlari indeksi hisob-kitoblarida foydalanish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, Statistika agentligi tomonidan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash maqsadida idoraviy ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyani yo'lga qo'yish orqali skaner axborotlaridan foydalanish texnologiyasini joriy etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Soliq qo'mitasi ma'lumotlar bazasi bilan integratsiyani yo'lga qo'yish borasida hamkorlikda ishlar olib borilmoqda. Kurs davomida mamlakatimiz vakillari bu borada muayyan natijaga erishgan mamlakatlar tajribasini o'rgandilar.

Shubhasiz, butun dunyoda kuzatilayotgan globallashuv jarayonlari barcha milliy iqtisodiyotlar oldiga ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish, yangi o'sish nuqtalarini aniqlash va aholi turmush farovonligini oshirish hamda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqishda har tomonlama chuqur, puxta tahlillar asosida qarorlar qabul qilish vazifasini qo'ymoqda. Aynan shu nuqta'i nazardan, ijtimoiy-iqtisodiy holat to'g'risida dolzarb, ishonchli va tezkor statistika ma'lumotlarini yetkazib berish muhim o'ringa egadir.

Kurs davomida iste'mol narxlari indeksi to'g'risida shakllantirilgan ma'lumotlarni e'lon qilish masalasi alohida mavzu sifatida o'tildi. Ma'ruzachilar eng avvalo, iste'mol narxlari indeksi to'g'risida shakllantirilgan ma'lumotlar foydalanuvchilarning keng qatlamlari uchun tushunarli tilda, umumiydan xususiyga qarab, ya'ni yig'ma ko'rsatkich o'zgarishidan eng pastki daraja, alohida tovar va xizmatlarning narx o'zgarishlarini yoritishga yo'naltirilgan bo'lishini ta'kidladilar. Tahliliy ma'lumotlarda narx indeksi o'zgarishiga ta'sir qilgan omillarning keltirilishi, har qanday o'zgarishlar yuzasidan izohlarning mavjudligi axborotning foydalanuvchilar uchun qiziqarli va mazmunli bo'lishini ta'minlashi qayd etildi.

Amaliy mashg'ulotlarda kurs ishtirokchilari tomonidan milliy statistika idoralarida ma'lumotlarni e'lon qilish shakllari bo'yicha taqdimotlar qilindi. Ta'kidlash joizki, Qozog'iston va Gruziya statistika idoralari tomonidan zamonaviy dasturiy mahsulotlar yordamida e'lon qilinayotgan ma'lumotlarni vizuallashtirish, tahlil imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha qilingan ishlar ijobiy baholandi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi to'g'risida e'lon qilib boriladigan press-reviz mazmunan va tarkibiy jihatdan to'liqligi va kengligi jihatidan ishtirokchilarda ijobiy taassurot uyg'otdi hamda xalqaro tavsiyalarga to'liq mos kelishi ma'ruzachilar tomonidan alohida ta'kidlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida, Birlashgan Vena Institutida tashkil etilgan o'quv kursida, shu bilan birga, boshqa xalqaro iqtisodiy-moliyaviy va statistika institutlari tomonidan tashkil etilayotgan har qanday tadbirlarda mamlakatimiz vakillarining ishtirok etishi va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganishi sohani rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zero, mamlakatimizda iste'mol narxlari indeksini shakllantirish amaliyotini o'rta va uzoq muddatli istiqbolda

takomillashtirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar belgilab olinganligi, bu borada muhim uslubiy yondashuvlarni amaliyotga joriy etish bo'yicha amaliy ishlar boshlanganligi uzluksiz ravishda izlanish va o'rganishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: Nazariya va amaliyot" (Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevropa hamjamiyati statistika byurosi (Yevrostat), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YeIK), Butunjahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)), 2007- y.
2. "Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: Tushunchalar va usullar" (Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevropa hamjamiyati statistika byurosi (Yevrostat), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YeIK), Butunjahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)), 2020- y.
3. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-apreldagi "Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4273-son qarori <https://lex.uz/>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qarori <https://lex.uz/>.
6. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е., Ли Д.М. Информационно-коммуникационные технологии в туризме Узбекистана. Монография. – Т.: Фан, 2008 г., 134 с.
7. Бегалов Б.А., Кудайбергенов А.К. Эффективность использования информационно-коммуникационных технологий на предприятиях. Монография. – Т.: Фан, 2007 г., 140 с.
8. R.X.Alimov, B.A.Begalov, G.T.Yulchiyeva, Sh.Alishov Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – Т.: O'zbekiston Yozu-vchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyot. 2005.- 184 b.
9. Б.К.Ғойибназаров Ўзбекистонда макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш – турмуш фаровонлигининг юксалишига хизмат қилади. statistika.uz 14.01.2018 й.09:03
10. Dejan Soshkić (2015). Inflation Targeting Challenges in Emerging Market Countries:The Case of Serbia, ECONOMIC ANNALS, Volume LX, No. 204 / January – March 2015 UDC: 3.33, pp 7-30.
11. Batini, N.; Kuttner, K.; Laxton, D. (2005). Does Inflation Targeting Work in Emerging Markets? World Economic Outlook, September, pp. 161–186. Orphanides A. Reflections on inflation targeting // Speech at the 6th Norges Bank Monetary Policy Conference on Inflation targeting twenty years. — 2009. — 11 июня. — С. 10.

12. “O‘zbekiston Respublikasi. Iste‘mol narxlari indeksi bo‘yicha missiyasi texnik hisoboti (2021 yil 11-15 oktabr)” P. Kelli, 15.12.2021- y.

13. “O‘zbekiston Respublikasi. Iste‘mol narxlari indeksi bo‘yicha missiya hisoboti (2022- yil 9-13 may)” V. Gereyro, 2022- y.

14. Rivojlangan davlatlarning iste‘mol narxlari indeksi ko‘rsatkichi bo‘yicha metama‘lumotlari, Xalqaro valyuta jamg‘armasining k-MTUT, <https://dsbb.imf.org/>.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb sayti <https://stat.uz>.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining axborot tizimi <https://siat.stat.uz>.

17. Mualliflar ishlanmasi.